



Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-sentyabr 2018 goda

Raq'amlar:

- 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 7861,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'shish sur'ati 134,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 2734,9 ming so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 7861,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (32,8 %), transport xizmatlari (27,8 %), moliyaviy xizmatlar (10,4%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2,6 %) tashkil etadi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2018 yil yanvar-sentyabr oylari uchun)

	mlrd. so'm	2017 yil yanvar-sentyabr ga nisbatan % hisobida	yakunga nisbatan % hisobida
Jami xizmatlar	7862,0	106,0	100,0
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	203,4	123,6	2,6
moliyaviy xizmatlar	820,9	134,7	10,4
transport xizmatlari	2181,0	101,3	27,8
shu jumladan: avtotransport xizmati	2103,0	101,7	26,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	367,8	101,4	4,7
savdo xizmatlari	2577,0	99,0	32,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	285,0	103,3	3,6
ta'lim sohasidagi xizmatlar	176,2	126,2	2,3
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	144,4	124,6	1,8
ijara xizmatlari	259,1	105,7	3,3
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	191,4	101,5	2,4
shaxsiy xizmatlar	231,2	101,9	2,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	159,2	134,2	2,0
boshqa xizmatlar	264,9	121,4	3,4


O'tgan yilning mos davriga savdo xizmatlari (0,5 trln. so'm), moliyaviy xizmatlar (0,3 trln. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (0,1 trln.so'm), ta'lim xizmatlari (0,1 trln.so'm) oshganligi kuzatildi.



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi moliyaviy xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Ularning hajmi 2017yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 0,3 trln.so'mga oshdi.

2018 yil yanvar- sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (34,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (34,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (24,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (23,6 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar- sentyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 25,1 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati – 22,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 20,0 %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 8,6 % ni tashkil etgan.

Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (88,9 %) etakchilik qilmoqda.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2577,0 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 74,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,7 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 7,5 % ni tashkil qiladi.

**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**


	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan % da
Toshkent viloyati	7861,9	106,0	100,0	2734,9	104,8
shaharlar:					
Nurafshon	1155,3	125,3	14,7	24118,4	124,0
Olmaliq	504,6	102,2	6,4	3938,9	100,9
Angren	374,2	100,5	4,8	2028,3	99,2
Bekobod	340,5	101,5	4,3	3641,5	100,2
Chirchiq	556,2	108,2	7,1	3586,4	107,4
Ohangaron	155	101,5	2,0	4223,1	100,4
Yangiyo'l	329,6	101,4	4,2	5548,1	101,0
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	205,3	101,9	2,6	2003,2	100,6
Ohangaron	106,4	100,2	1,3	1138,3	98,9
Bekobod	191,4	102,4	2,4	1248,2	101,2
Bo'stonliq	394,4	106,3	5,0	2372,9	105,4

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so'm	2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan % da
Bo'ka	196,8	103,0	2,5	1608,9	101,7
Zangiota	614,0	106,2	7,8	3169,9	105,4
Qibray	700,7	104,3	8,9	3575,2	103,1
Quyichirchiq	122,8	101,7	1,6	1166,4	100,7
Parkent	296,9	106,0	3,8	1975,5	104,3
Piskent	104,5	102,0	1,3	1062,2	100,8
Toshkent	432,0	101,0	5,5	2451,5	100,1
O'rtachirchiq	264,7	100,3	3,4	1822,8	98,8
Chinoz	233,8	102,1	3,0	1794,5	100,8
Yuqorichirchiq	242,4	105,6	3,1	1840,9	104,1
Yangiyo'l	340,4	100,5	4,3	1663,8	98,9

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (125,3%), Chirchiq (108,2%), Bo'stonliq (106,3%), Parkent (106,0 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar- sentyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2734,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi Nurafshon shahrida 24,0 %, Chirchiq shahrida 7,4 %, Bo'stonliq tumanida 5,4 % ga oshgan bo'lsa, quyidagilarda jumladan, , tumanlardan Ohangaronda 1,1 %, O'rtachirchiqda 1,2% va Yangiyo'lida 1,1 % ga kamaygan.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74